



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **324 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar ning ulushi **4,4%** ni tashkil qildi.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **106 taga oshgan.**

2018 yil 1 fevral holatiga tashkilotlar soni 14380 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 433taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50 % kamaygan hamda ularning soni 55tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 78 ta (0,6 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13752 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,4 %), Xiva shahrida (11,9%), Urganch (10,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14380	100	13752	100
Urganch sh.	3600	25,0	3359	24,4
Xiva sh.	980	6,8	966	7,0
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot tumani	762	5,3	741	5,4
Gurlan tumani	878	6,1	825	6,0
Qo'shko'pir tumani	809	5,6	786	5,7
Urganch tumani	1429	10,0	1392	10,1
Xazorasp tumani	978	6,8	946	6,9
Xonqa tumani	1049	7,3	1018	7,4
Xiva tumani	1706	11,9	1642	11,9
Shovot tumani	706	4,9	660	4,8
Yangiariq tumani	952	6,6	913	6,7
Yangibozor tumani	531	3,7	504	3,7

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

faoliyat ko'rsatayotganlar
 faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 10,3 % qurulishda, 7,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p) hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,7 f.p dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,5 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0,3 f.p.), savdoda (+0,2 f.p), tashish va saqlashda(+0,2 f.p.), qurulishda (+0,1 f.p.), axborot va aloqada (+0,1 f.p.dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Boshqa turlari	29,0	29,7	-0,7
Sanoat	15,8	15,3	0,5
Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligi	7,8	7,4	0,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,2	0,3
Savdo	23,9	23,7	0,2
Tashish va saqlash	3,9	3,7	0,2
Qurilish	10,3	10,2	0,1
Axborot va aloqa	1,6	1,5	0,1

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 51 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 34,2 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,5 %), Shovot tumani 11 ta (21,6 %) va Xiva shahar 7 ta (13,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Gurlan tumani 1 ta (2,0 %), Xazorasp tumani 1 ta (2,0 %), Xonqa tumani 1 ta (2,0 %) va Yangibozor tumani 1 ta (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 31 ta (60,8 %), savdoda 8 ta (15,7 %), qurilishda 4 ta (7,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (2,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (3,9 %) va boshqa turlarida 3 ta (5,9 %) tashkil qilgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqada umuman yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10974 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 4,8 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2718 tasi (24,8 %) Urganch shahriga, 1466 tasi (13,4 %) Xiva tumani, 1158 tasi (10,6 foizi) Urganch tumani hamda 870 tasi (7,9 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10974ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3266 tasi (29,8 %) – savdoda, 2155 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1414 tasi (12,9 %) - qurilishda, 1048 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 739 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 524 tasi (4,8%) - tashish va saqlashda, 206 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 226 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1396 tasi (12,7%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holatiga 149 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (44 ta), Urganch tumani (20 ta), Gurlan tumani (14 ta) va Xonqa tuman (14 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (3 ta), Xiva (4 ta), Xazorasp (4 ta) hamda Qo'shko'pir (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (46 ta), sanoatda (33 ta), qurilishda (26 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (10 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta), axborot va aloqada (2 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 923 tani tashkil etib, ulardan 890 tasi yoki 96,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **42,5** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,2 % yoki 242 tasi sanoat, 25,6% yoki 228 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,4 % yoki 182 tasi savdo, 11,5 % yoki 102 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 1,7 % yoki 15 tasi qurilish, 0,2 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 11,0 % yoki 98 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan